



## MATNLARNING TARJIMADAGI PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI (ERNEST HEMINGVEYNING “THE OLD MAN AND THE SEA” ASARI MISOLIDA)

**Fayzullayeva Dilorax Baxtiyorovna,**  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,  
“Xorijiy til va adabiyoti” yo‘nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ernest Hemingveyning “Chol va dengiz” asarining o‘zbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan pragmalingvistik xususiyatlar tahlil qilinadi. Asarda muallifning minimalistik uslubi, ramziy obrazlar va chuqur falsafiy mazmuni tarjima jarayonida qanday aks etgani ko‘rib chiqiladi. Tarjimada uslubiy vositalar, sintaktik xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy kontekst va kontekstual moslikni saqlash muhimligi ta’kidlanadi. Tahlil davomida so‘zma-so‘z, erkin va moslashtirilgan tarjima usullarining qo‘llanilishi misollar bilan yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Pragmalingvistika, badiiy tarjima, Ernest Hemingvey, “Chol va dengiz”, minimalistik uslub, ramziy obrazlar, tarjima usullari, madaniy kontekst, sintaktik xususiyatlar, kontekstual moslik.

**Аннотация:** В статье анализируются прагмалингвистические особенности, возникающие при переводе произведения Эрнеста Хемингуэя «Старик и море» на узбекский язык. В работе рассматривается, как минималистский стиль автора, символическая образность и глубокое философское содержание нашли отражение в процессе перевода. Подчеркивается важность сохранения стилистических приемов, синтаксических особенностей, социокультурного контекста и контекстуальной релевантности при переводе. Анализ проиллюстрирует использование методов буквального, свободного и адаптированного перевода на примерах.

**Ключевые слова:** Прагмалингвистика, художественный перевод, Эрнест Хемингуэй, «Старик и море», минималистский стиль, символические образы, приемы перевода, культурный контекст, синтаксические особенности, контекстуальная сочетаемость.

**Kirish:** Tarjimada pragmalingvistika matnning ma’nosini, uslubini va kontekstual xususiyatlarini saqlab qolish muhimligini ta’kidlaydi. Ernest Hemingveyning “The Old Man and the Sea” asari o‘zining soddax, ammo chuqur ma’noli uslubi bilan ajralib turadi. Ushbu asarni tarjima qilishda pragmalingvistik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

**Asosiy qism:** 1. Uslubiy vositalarning tarjimasi





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Hemingvey asarida metafora, personifikatsiya va boshqa uslubiy vositalardan keng foydalanadi. Masalan, “Fishing kills as it keeps me alive” iborasi paradoks sifatida tarjimada muhim ahamiyatga ega. Ushbu ibora Ibrohim G’ofurov tarjimasida “Ov qilish meni o’ldiradi, lekin shu bilan meni tirik saqlaydi” tarzida ifodalangan.[1]. Tarjima jarayonida so’zlar va iboralarga mos ekvivalent topish juda muhim sanaladi. Chunki bu narsa asarni to’liq ma’nosi va maqsadini ochib berishda katta rol o’ynaydi.

### 2. Sintaktik xususiyatlar

Hemingveyning yozuv uslubi qisqa va sodda gaplar bilan ajralib turadi. Bu uslub tarjimada ham saqlanib qolgan. Masalan, “He was an old man who fished alone in a skiff in the Gulf Stream” jumlasini “U yolg’iz, kichik qayiqda, Golf oqimida baliq ovlaydigan chol edi” tarzida tarjima qilingan[2]. Bunday uslubdan foydalanib yozuvchi o’z maqsadini aniq, shu bilan birga tushunarli va ta’sirli qilib ifodalagan. O’zbek tiliga tarjima qilish jarayonida esa tarjimonlar ko’plab qiyinchiliklarga uchraydi chunki o’zbek tilida fikrlarni bunday qisqa ammo ta’sirli qilish ancha mahorat talab qiladi. Yuqoridagi misollar orqali shuni bilish mumkinki, tarjimon Ibrohim G’ofurov buni uddaladi.

### 3. Ijtimoiy-madaniy kontekst

Asarda ispancha so’zlar va iboralar ko’p uchraydi, bu esa tarjimada madaniy kontekstni saqlashni talab qiladi. Masalan, “salao” so’zi “eng omadsiz” deb tarjima qilingan[3]. Bu so’zning tarjimasi o’quvchiga ispan madaniyatini his qilish imkonini beradi.

### 4. Kontekstual moslik

Tarjimada kontekstual moslikni saqlash muhimdir. Masalan, “He was too simple to wonder when he had attained humility” jumlasini “U qachon kamtarlikka erishganini o’ylash uchun juda sodda edi” tarzida tarjima qilingan [4]. Bu tarjima original matnning ruhini saqlab qolgan.

### Xulosa

Ernest Hemingveyning “The Old Man and the Sea” asarini tarjima qilishda pragmalingsvistik yondashuvlar muhim rol o’ynaydi. Uslubiy vositalar, sintaktik xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy kontekst va kontekstual moslikni saqlash tarjimaning sifatini belgilaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hemingvey, E. (2015). *Chol va dengiz*. Ibrohim G’ofurov tarjimasini. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Ruzieva, M. B. (2023). Translation Problems of Stylistic Devices in “The Old Man and the Sea” by Ernest Hemingway into Uzbek. *International Conference of Education, Research and Innovation*.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS

3. Sattorova, N. I. (2023). EXPRESSING LEXICAL FEATURES IN TRANSLATION BASED ON THE OLD MAN AND SEA BY ERNEST HEMINGWAY. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(5), 4–10.

4. Abdusalimova, M., & Iskandarova, L. (2023). Syntactic Features of Ernest Hemingway's Work “The Old Man and the Sea”. *Education, Science and Innovative Ideas in the World*.

5. Korshunova, E. S. (2018). Modes of Literary Translation of Similes (By the Example of the Novel by Ernest Hemingway “The Old Man and the Sea”). *Philology. Theory & Practice*, 5(1), 124-127

